

KOMIL INSON TARBIYASIDA MUSIQA TA'LIMINING AHAMIYATI.

Husnora Tojiqulova,

Musiqa madaniyati fakulteti

4- bosqich talabasi

N.Xasanova, ilmiy rahbar

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida musiqa darslarini o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari, imkoniyatlari musiqa darslarining o'ziga xos tuzilish xususiyatlari bilan bog'liq ravishda tahlil qilingan hamda metodik tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Umumta'lim maktablari, boshlang'ich sinf, musiqa madaniyati, dars, ta'lim, estetik tarbiya, samaradorlik.

Respublikamiz taraqqiyoti va o'zgarishlarga boy hozirgi paytda yoshlarning har tomonlama komol topishi davr talabi va ehtiyojidir. Yosh avlodni ma'naviy baquvvat, bilimli, o'z mustaqil Vatanimizdan fahrlanish tuyg'usiga boy kishilarni tarbiyalash zamonamizning dolzarb mavzusi hisoblanadi. Bu esa ta'lim-tarbiya oldidagi murakkab, keng ko'lamli muammolardan biridir.

Tarbiyalash deganda har tomonlama yetuk, o'zida ahloqiy poklik, ma'naviy boylik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirish nazarda tutiladi. Tarbiya tizimida musiqa san'ati yetakchi o'rinda turadi. Hozirgi kunda musiqa san'atni inson tarbiyasidagi roli ortib bormoqda. Yoshlarimizni ma'naviy yetuk, komil inson etib tarbiyalashda musiqa tarbiyasining roli shak-shubhasiz kattadir. Maktab yoshlarga bilim asoslarini singdiradi. U bolani ilmiy dunyoqarashining shakllanishi va mustahkamlanishi yo'lida asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Shunday ekan umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida dastlabki musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy maqsadi – o'quvchilarga musiqa san'atini

go‘zallik qonunlari asosida o‘rganish malakasini singdirish va ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirishdir. Boshlang‘ich sinflarda musiqa madaniyati darslari umumiy ta‘limning axloqiy-estetik tarbiya berish tizimining ajralmas bir qismi bo‘lib hisoblanadi. Shunga ko‘ra 1-sinfdan boshlab darslarni izchil, tizimli va ilmiy asosda tashkil etilishi o‘quvchi-yoshlarni ta‘limning keyingi bo‘g‘inlariga ma‘lum tayyorgarlik bilan borishlarini ta‘minlaydi.

Darslarni to‘g‘ri tashkil etishning pedagogik, metodik jihatlarini unutmagan holda quyi sinflarda musiqa ta‘limi va tarbiyasini tashkil etilishida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari bilan bog‘liq psixologik va fiziologik imkoniyatlari va xususiyatlarini hisobga olib ish tutish lozim bo‘ladi. O‘quvchilarga jamoa bo‘lib qo‘shiq kuylash chog‘ida vokal-xor malaklari ustida ish olib borganda bu jihatlarni doimiy ravishda e‘tiborda tutish shartdir.

O‘quvchilarni xotirasi yaxshi rivojlanmagan, ovoz apparatlari to‘la shakllanmaganligi sababli ovoz pardalari nozik, kuchsiz bo‘ladi. Shu bilan birga ular serharakat, o‘yinga moyil, taqlidchan bo‘ladilar. O‘quvchilar o‘rganishi, tinglashi uchun repertuar tanlashda musiqaviy asarlar ana shu xususiyatlarni nazarga olgan holda mazmuni va mavzusi jihatdan xilma-xil bo‘lmog‘i lozim. Bu o‘rinda musiqa o‘qituvchisi har bir darsga puxta tayyorgarlik ko‘rmog‘i, ijodiy yondashmog‘i shart. Boshlang‘ich sinflarda musiqa ta‘lim va tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etilishi ko‘proq dars faoliyatlarini o‘z o‘rnida tez-tez almashtirishni taqazo etadi. Chunki, musiqa darslarning besh asosiy faoliyat turlaridan musiqaga mos harakatlar bajarish va bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish kabi faoliyatlar darslarni qiziqarli va mazmunli o‘tishini ta‘minlaydi.

O‘qituvchi imkon qadar darsni qiziqarli qilib tashkil etishga harakat qilishi kerak bo‘ladi. Bolalar musiqani chuqur idrok etishlari uchun beshta faoliyatlardan unumli foydalaniladi. Qo‘shiq kuylash faoliyatida o‘quvchilarga muttasil ravishda

“diqqat”, “auftakt”, ijroni boshlash, tugallash, dinamikani his etish, og‘izni ochish, tovush chiqarish, nafas olish va uni sarflash kabilar ustida ish olib boriladi.

boshlang‘ich sinflarda musiqa savodidan quyidagi bilim va malaklar shakllanib borib, amalda bajarilishi zarur.

1. Kuylarning ritmik sxemalarini so‘zlar bilan kuylash (Da,de,di,do,du,ma, me,mi,mo,mu.).
2. Kuchli va kuchsiz hissalarini aniqlash va ularni his etib kuylash;
3. Chapak va cholg‘u asboblari cholib, kuyga ritmik jo‘r bo‘lish;
4. Marsh va raqsni farqlash, ularga mos harakatlarni bajarish;
5. Musiqiy va shovqin tovushlarini farqlay olish;

boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarni ovozigacha jiddiy diqqat qilib borish zarur.

Musiqa tinglash boshlang‘ich sinflarda asosan o‘quvchilarni kuyga tavsif berish, kuyni kim yaratadi-kompozitor, kim ijro qiladi-cholg‘uchi, xonanda, kim tinglaydi kabi savollarga javob berishlari, eng oddiy musiqiy ma’lumotlar bilan tanishtirib borishga e’tibor qaratiladi. Darsda tinglanadigan har bir asar, badiiy-g‘oyaviy jihatdan yil va chorak mazmuniga bog‘liq bo‘ladi, ilmiylik, davomiylik, izchillik tamoyillariga amal qiladi.

Musiqa tinglash quyidagicha bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. O‘qituvchining o‘quvchilar e’tiborini musiqiy asarga jalb qilish, kirish so‘zi;
2. O‘qituvchi ijrosida yoki texnik vosita orqali asarni tinglash;
3. Musiqa asarini suhbat yo‘li bilan musiqaviy-g‘oyaviy jihatdan oddiy tahlil qilish;
4. Asarni yana bir bor yaxlit holda tinglash va asar haqida o‘quvchilarning umumiy taassurotlari yuzasidan yakuniy suhbat o‘tkazish.

Bolalar cholg‘u asboblari jo‘r bo‘lish faoliyati ikkinchi sinfda eng qiziqarli mashg‘ulotdir. Musiqa madaniyati darslarida bolalar cholg‘u asboblari

foydalanish yaxshi natijalar berishi bilan birga o'quvchilarni darsga intiluvchanligini, qiziqishini, musiqiy qobiliyatlarini shakllanishini kuchaytiradi.

Boshlang'ich sinfda barcha faoliyatlarni faol qo'llanishi o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Musiqadan badiiy ozuqa olish, uni his etish, quvnoq kayfiyat hosil bo'lishida o'quvchilarning musiqiy obrazlarni idrok etishlari, tasavvur etishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, o'qituvchi boshlang'ich sinfda o'quvchilarni dars mashg'ulotlari jarayonida ishonchli vositalar: - ko'rgazmali qurollar, texnika vositalari, test kartochkalari, didaktik o'yinlar noan'anaviy darslar yordamida o'tishini talab qiladi. Bu jarayonni samarali amalga oshirishda tafakkur, xotira, diqqat va emotsionallik yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Pedagogika va psixologiya fanlari shuni ta'kidlaydiki, bolalarni musiqa qobiliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda bolalarda yosh, individual, fiziologik, psixologik xususiyatlarini e'tiborga olmasdan bo'lmaydi. Shunga muvofiq tanlangan vazifalar, pedagogik talablar ta'lim jarayonini muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.I.Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch"-Toshkent, Ma'naviyat, 2008-yil.
- 2.N.Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarning o'rni. Aktualnyy vyziv sovremennoy nauki IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.
- 3.Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali* , 29 (08), 3489-34953495.
4. I.Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" – Toshkent, Ma'naviyat, 2008-yil.
- 5.M.Bo'ronov."O'zbekistonda ma'naviy-marifiy siyosatning tadrijiy rivojlanishi". Toshkent, Ma'naviyat, 2016-yil.

- 6.N.Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarning o'rni. Aktualnyy vyziv sovremennoy nauki IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017-yil.
- 7.Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) <https://t.me/joinchat/> - Music teacher, <https://infourok.ru> - music lessons
- 8.Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. *Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali* , 29 (08), 3489-34953495.
- 9.Xolmirzaev,O. (2021). YoShLAR KAMOLOTI VA MUSIQA: YoShLAR KAMOLOTI VA MUSIQA. *Jurnal doshkolnogo obrazovaniya*, 3(3). izvlecheno ot <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2103>
- 10.Hasanova Navbahor. (2020). METHODS AIND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI*, 1(42). izvlecheno ot https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579
11. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi konsepsiyasi. – Toshkent, XTV, 1995 yil
- 12.Khasanova Navbakhor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.”Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal.Vol.2020 :Iss.2. Article 15.
:<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>
- 13..Hasanova Navbahor. (2020). METHODS AIND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI*, 1(42). izvlecheno ot https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579
14. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi Konsepsiyasi. – Toshkent, XTV, 1995 yil
- 15.Khasanova Navbakhor (2020) “The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students.”Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal.Vol.2020 :Iss.2. Article 15.
:<https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15>

